# XALQ MUSIQASINING YETTI POG‘ONALI DIATONIK LADLARI

# Xalq musiqasining yetti pog'onali diatonik ladlari

Reja.

pentatonika,
ioniy,
doriy,
frigiy,
lidiy,
miksolidiy,
eoliy,
gipofrigiy yoki lokriy ladlari,
pentatonika ladlari

# Xalq musiqasining yetti pog'onali diatonik ladlari.

Xalq musiqasida ketma-ket kelgan va turli diatonik pog'onalardan tuzilgan yetti pog'onali ladlar ko'p uchraydi.

Biz bilamizki, lad pog'onalarining birin-ketin kelishi, tovushqatorda katta va kichik sekundalar joylashishiga bog'liq.

# Xalq musiqasi ladlarining tabiiy major va minordan farqi

| Qadimgi nomi | Hozirgi major - minor tuzilmasidagi o’rni | Diatonik tovushqatordagi o’rni |
|---|---|---|
| Ioniy | diatonik tabiiy do major | c tovushidan boshlab tuziladi |
| Doriy | 6-bosqichi ko’tarilgan minor | d tovushidan boshlab tuziladi |
| Frigiy | 2 – pog’onasi pasaytirilgan minor | e tovushidan boshlab tuziladi |
| Lidiy | 4 – pog’onasi ko’tarilgan major | f tovushidan boshlab tuziladi |
| Miksolidiy | 7-pog’onasi pasaytirilgan major | g tovushidan boshlab tuziladi |
| Eoliy | tabiiy minor | a tovushidan boshlab tuziladi |
| Gipofrigiy yoki Lokriy | 2 va 5-bosqichlari yarim ton ko’tarilgan minor | h tovushidan boshlab tuziladi |

# Xalq ladlari diatonik tovushqatordagi ma’lum tovushlardan tuzilganda, yuqoridagi jadvalda ko’rsatilganidek hech qanday al’teratsiya belgilariga ega bo’lmaydi:



Boshqa bosqichlardan tuzilganda esa jadvalda ko’rsatilgan tovushqatorlar intervallari al’teratsiya belgilari yordamida hosil qilinadi.

Dunyo xalqlari musiqasida tovushqatori katta sekundalar va kichik tertsiyalar orasida tuzilgan besh pog'onali ladlar ko'p uchraydi.

Bu xildagi ladlar **pentatonika** deyiladi.

Pentatonika – yunoncha besh va ton so'zlaridan olingan bo'lib, oktava ichida beshta tovushdan iborat bo'lgan tovushqator tuzilmasi

Fortepianoning qora klavishlarida, bir oktava oralig’ida birin-ketin eshitilgan barcha tovushlar pentatonika tovushlarini hosil qiladi.

Pentatonika tarkibiga: yo bitta kichik tertsiya bilan uchta katta sekunda yoki ikkita kichik tertsiya bilan ikkita katta sekunda kiradi.

Bu lad boshqa ladlardan tovushqatori tarkibida kichik sekundalar (yarim tonliklar) ning yo'qligi bilan farq qiladi.

Pentatonika pog'onalari uchtonlik hosil qilmaydi.



# Asosan ikki xil pentatonika ko'p tarqalgan:

Birinchi pog'onadan (diatonik tovushqatorda, ya'ni **do**) *major uchtovushligi tuziladigan pentatonika*.

Bu o'z xarakteri bilan major ladiga yaqin turadi,

biroq u tabiiy majordan 4 va 7 – pog'onalar yo'qligi bilan farq qiladi.


kat.2
kat.2
kich.2
kat.2

# Barcha diatonik pog'onalardan major uchtovushligi pentatonikasi quyidagicha tuziladi:



- Birinchi pog’onadan (diatonik tovushqatorda, ya’ni **lya**) *minor uchtovushligi tuziladigan pentatonika* minorni eslatadi, biroq unda 2 va 6 – pog’onalar bo’lmaydi.



# Barcha diatonik pog'onalardan minor uchtovushligi pentatonikasi quyidagicha tuziladi:







# Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

- Qanday ladlarga xalq musiqasining yetti pog’onali diatonik ladlari deyiladi?
- Do tovushidan tuzilgan diatonik tovushqator xalq ladlari bo’yicha nima deb ataladi?
- Miksolidiy ladini tushuntiring.
- Frigiy ladiga misol keltiring.
- Pentatonika atamasi nimani bildiradi?
- Pentatonikaning qanday ko’rinishlari mavjud?
- Pentatonika ladlari qaysi xalqlar musiqasida keng qo’llaniladi?